

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida taraqqiyot strategiyasining "Kitob sevar millat" maqsadidan kelib chiqqan holda, kitobxonlikning samaradorligini oshirish**

**Nazarova Dilnoza Eraliyevna**

Tarix fanlari bo'yicha

Falsafa doktori, dotsenti

**Qodirova Shaxnoza Saidazim qizi,**

"Maktabgacha ta'lim" yo'nalishining

birinchi kurs magistranti

**Annotatsiya.** Davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan kitobxonlikni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samaradorligini oshirish va unga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, maktabgach yoshdagi bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishini uyg'otish masalalarini ilgari surish.

**Tayanch so'zlar:** kitobxon, umummilliy, taraqqiyot, festival, strategiya, yarmarka, maktabgacha ta'lim, ma'daniyat, savod, ensiklopediya, kitob, ta'lim, tarbiya, raqamlashtirilgan, manba, bilim.

**Аннотация.** Продвигать вопросы повышения эффективности чтения книг в дошкольных образовательных организациях, усиления внимания к нему, формирования интереса к книгам у детей дошкольного возраста, реализуемые Главой нашего государства.

**Ключевые слова:** читатель, общенациональный, развитие, фестиваль, стратегия, ярмарка, дошкольное образование, культура, грамотность, энциклопедия, книга, образование, воспитание, оцифрованный, источник, знание.

**Annotation.** To promote the issues of increasing the effectiveness of reading in preschool educational organizations, increasing attention to it, and arousing interest in books among preschool children, as implemented by the Head of our state.

**Keywords:** reader, nationwide, development, festival, strategy, fair, preschool education, culture, literacy, encyclopedia, book, education, upbringing, digitized, source, knowledge.

Kitobxonlik madaniyatini  
yuksaltirish – buyuk maqsadlarimizga  
erishishning muhim kafolatidir.

**Sh.M.Mirziyoyev**

Kitobxonlik har bir millatning boyligi sananaladi. Har bir zamonning boyligi ham aynan kitoblarga bo'lgan e'tibordir. Hozirgi kunda kitobga bo'lgan talab va ilmga bo'lgan talab ortib bormoqda.

Davlatimiz rahbarining 2022- yil 28-yanvardagi farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 72-maqsadi sifatida aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda "Kitob sevar millat" umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish belgilangan.<sup>1</sup>

Shu sababli davlat rahbarlarimiz o'z oldilariga yanada ko'p maqsadlarni qo'yishgan. 500 ga yaqin kitob festivallari hamda, yarmarkalarini olib borish yo'lga qo'yilgan. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad kelesak avlodlarini savodxonlikka chaqirish hamda kitobga bo'lgan muhabbatni oshirishga xizmat qiladi. Yosh avlod uchun hozirgi kunda ko'plab imkoniyatlar va shart-sharoitlar

<sup>1</sup> Kitobxonlik ma'daniyatini yuksaltirish: muammo va vazifalar" Navoiy -2020-y

amalga oshmoqda. Yosh bolajonlar uchun ham kitob yarmarkalari maktablarda va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshmoqda, bunda har bir bolani kitobxonlikka bo'lgan talabini va samarasini berish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Kitobxonlikka bo'lgan muhabbatni bolalarni yoshligidanoq qiziqтира, undagi barcha qobiliyatlar va iste'dot egalari kelib chiqadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir xonada kitob javonlarining borligi bunga asos sifatida hizmat qiladi. Har bir tarbiyachi hamda o'qituvchi bolaga kitob haqida ma'lumotlar bersa va ularni chiroyli mutolaa qilib bersa, har bir bolada kitobga bo'lgan muhabbat va hurmat uyg'onadi. Har bir jarayon yoshlikdan amalga oshiriladi. "Har qanday xazina bir kunmas bir kun tugashi mumkun. Faqat ilm (bilim) xazinasini qancha ishlatganingiz sari shuncha ko'payib borish xususiyatiga ega".

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari "Kitob- beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai", deb o'tganlar.<sup>2</sup>

Kitob- bilim manbai deyiladi sababi kitob bizga unutilmas hotiralar va ilm beradi. Har bir kitobning o'qib bo'lgan undagi ma'naviy va ma'rifiy jihatlarni hamda, axloqiy va estetik jihatlarni tahlil etamiz. Undagi bilim manbai nimaga qaratilvotganini chuqur o'rganamiz, undagi bor ma'lumotlarni tushunib yetishga harakat qilamiz. Kitoblarning turli yo'nalishlarga qaratilgani sababli undan ko'proq foydalanishga va har bir inson o'ziga qiziq bo'lgan mavzudagi kitoblarni mutolaa qilishga muvassar bo'ladi. Hozirgi kunda nafaqat kutubxonalar balki ularning raqamlashtirilgan varianti ham bor, ya'ni elektron kitoblar va kutubxonlar bor. Ulardan hohlagan paytda va hohlagan joyda mutolaa qilish mumkin.

Hozirgi yosh avlodlarimizga ham qiziqarli bo'lishi uchun kitoblarga turli xil rasmlarga boy bo'lgan kitoblar hamda ensiklopediyalar bor. Ularning yosh jihatidan kelib chiqqan holda bolalarga mutolaa qilib berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kitobga bo'lgan mehrni oiladan boshlasak, kelajak avlodlari bundan yanada ko'proq o'rnak oladi. Bunday jarayon bolalarda odatga aylanadi. Kitob orqali ta'lim va tarbiya olishni boshlaydi. Bu esa kelajak avlodlarining savodini yanada oshiradi.

Kitobxonlik madaniyati - bu nafaqat bilim olishning, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi. Uning shakllantirilishi nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki yoshlarning axloqiy, estetik va ijtimoiy mas'uliyatini yuksaltiradi.<sup>3</sup>

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. **Intellektual va shaxsiy rivojlanish** Kitobxonlik madaniyati shakllantirish orqali o'quvchilar va yoshlar nafaqat bilim olishadi, balki intellektual va shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan asoslarga ega bo'lishadi. Kitoblarni o'qish kishining dunyoqarashini kengaytiradi, o'z fikrini mustaqil ravishda rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ularning aqliy faolligi ortadi, va mustahkam bilim asosida muammolarga yechim topishga qodir bo'ladi.

2. **Axloqiy-estetik tarbiya** Kitoblar nafaqat ilmiy bilimlarni, balki axloqiy va estetik qadriyatlarni ham o'rgatadi. Klassik adabiyotlar, felsefi asarlar, badiiy asarlar insonni ma'naviy jihatdan to'ldiradi, uning ahloqiy fazilatlarini shakllantiradi. Kitobxonlik axloqiy va estetik tarbiya masalalarida ham ijtimoiy muhim rol o'ynaydi. Kitoblar orqali yoshlar o'zlarining ichki dunyosini

<sup>2</sup> "NUTQ O'QITIRISH NAZARIYASI VA \ METODIKASI" BABAYEVA D.R. 2018-y

<sup>3</sup> "KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PEDAGOGIK AHAMIYATI" Urazova Nafisa Gulimmatovna

anglab, haqiqat va adolat, do'stlik va sadoqat, vatanparvarlik kabi insoniy qadriyatlarni anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. **Pedagogik jarayonda** kitoblar va o'qishning roli Ta'lim tizimida kitoblarning roli beqiyosdir. Kitoblar nafaqat ta'limning ilmiy poydevorini yaratadi, balki pedagogik jarayonda o'qituvchining hamkoriga aylanadi. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda o'qituvchining rolini e'tiborga olish zarur. U kitoblarni o'quvchilarga tanishtirishda, ularga o'qishni qiziqarli va foydali qilishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarga kitoblarni to'g'ri tanlash va ulardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berishi lozim.

Xulosa. Kitobxonlik bu kelajak avlodini yanada savodxonlikka chaqirish va ularni aqliy salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish hamda, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir. Shuning uchun ham yurtimizda kitob bilan oshno bo'lgan, kitobni suygan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib, qorachig'idek asraganlarni ziyoli deb ataganlar. Ziyoli-nur tarqatuvchi, u o'zining xatti-harakatlari, faoliyati bilan jamiyatni nurlantiruvchi, ma'naviy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchilar hisoblangan. Sharq allomalarimizning fikrlaridan kelib chiqib, kitob faqat bilim olish vositasi emas, balki insonning ma'naviy va axloqiy shakllanishida muhim manba ekanini ko'ramiz. Bugungi kunda ularning g'oyalari asosida yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish, ilm olishga bo'lgan qiziqishini oshirish va kitobni insonning ajralmas hayotiy yo'ldoshi sifatida qadrlash zarur. Bundan tashqari, kitob o'qish orqali o'quvchilarning kompetensiyaviy. Ko'nikmalari ham shakllanadi. Kompetensiya – fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, ko'nikmalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, qo'llay olishdir. Boshlang'ich ta'limda kompetensiya – o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash, og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat.

Bu yoshda kitoblar o'qish vaqti kelsa ham, bolalarga dunyoni yaxshiroq tushunishga yordam beradi, o'zlarini ifoda etish va fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Zero, Ushinskiyning aytishicha, "Bolalarning nutqni egallashlari ularning hayotga tayyor ekanliklarini ko'rsatuvchi eng ishonchli dalildir". Yangi tizim asosida ijtimoiy, ma'naviy va ta'limiy ishlarni tashkil qilish bo'yicha beshta muhim tashabbusning to'rtinchi bandi yoshlar ma'naviyatini oshirish va kitobxonlikni keng targ'ib qilishga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil qilishni nazarda tutadi. Ushbu hujjatda davlatimiz rahbari yoshlarni bolalikdan kitobga muhabbat uyg'otish, mustaqil fikrlash va keng dunyoqarash shakllantirish zarurligini ta'kidlab, bu ularning hayot tarziga mustahkam poydevor bo'lishini qayd etdi. Chunki kitob o'qish bugungi yoshlar siyosatining asosiy omillaridan biri bo'lib, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli va samarali o'tkazishga imkon beradi hamda ma'naviy boyligini, axloqiy tarbiyasini va mehnatsevarlik tuyg'ularini rivojlantiradi.

#### Foydalangan adabiyotlar

1. "Kitobxonlik ma'daniyatini yuksaltirish: muammo va vazifalar" Navoiy -2020y
2. "NUTQ O'QITISH NAZARIYASI VA \ METODIKASI" BABAYEVA D.R. 2018-y
3. Karimova, G. (2017). Pedagogik jarayonlarda kitobning roli. Toshkent: Ta'lim
4. Ibrohimov, S. (2019). Yoshlar tarbiyasida kitobxonlikning ahamiyati. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti
5. Saidov, R. (2021). Kitob va madaniyat. Tashkent: Sharq

#### Elektron adabiyotlar

1. <https://strategy.uz/index.php?news=1958&lang=uz>
2. <https://zenodo.org/records/14909719/files/603-606%20Urazova%20N.pdf?download=1>